

EKOLOGIK TARBIYA VA EKOUMANISTIK G'OYALAR "YASHIL MAKON" LOYIXASINING POYDEVORI SIFATIDA

E.T. Xusanov

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti v.b.

Isoqova Vazira

Shahrisabz davlat pedagogika instituti II-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20565581>

Annotatsiya: ushbu tadqiqotda ekologik tarbiya va ekogumanistik g'oyalar "Yashil Makon" loyixasining poydevori sifatida o'rganiladi. Loyixa doirasida ekologiya bilimlari, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, hamda atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabat shakllantirishga katta e'tibor qaratilib, ekologik tarbiyaning nazariy asoslari, ekogumanizm konsepsiyasi va ularning "Yashil makon" loyihasida amaliy tatbiqi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ekogumanizm, loyiha, ekomadaniyat, ekologik ong, barqaror taraqqiyot, zamonaviy ta'lim, barqaror taraqqiyot, ekologik qadriyat, yashil makon loyihasi

Kirish. Ekologik tarbiya va ekogumanistik g'oyalar hozirgi kunda jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan hisoblanadi. "Yashil makon" loyihasi aynan shu qadriyatlarni asos qilib olgan holda, yosh avlodni tabiatga nisbatan hurmatli va mas'uliyatli bo'lishga o'rgatishni maqsad qilgan. Ekologik qadriyatlarni ta'lim tizimiga kiritish orqali biz atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror taraqqiyotni ta'minlash va kelajak avlod uchun sog'lom yashash muhitini yaratish yo'lida muhim qadam qo'yamiz. Yashil makon loyihasi ekologik tarbiya va ekogumanistik g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida yaratilgan yashil makon tashabbusidir. Ushbu loyiha atrof muhitni muhofaza qilish va ekologik ongni oshirishga qaratilgan bo'lib, unga ta'lim tizimida ekologik qadriyatlarni singdirish orqali jamiyatda barqaror rivojlanishni ta'minlashga intiladi. Loyiha doirasida ekologik tushunchalar va ekogumanistik tamoyillar asos sifatida qabul qilinib, inson va tabiiy muhit o'rtasidagi uyg'unlikni mustahkamlashga urg'u beriladi.

Metodologiya va tahlil. Ushbu bo'limda ekologik tarbiya va ekogumanistik g'oyalarning «Yashil Makon» loyihasining amalga oshirishdagi nazariy-ko'maklashuvchi vazifalarining tadqiqot dizayni va metodologik yondashuvi bayon etiladi. Aholi hayot sifati – umumlashtiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, nafaqat moddiy ne'matlar va xizmatlarni iste'mol qilish darajasini (turmush darajasini), balki ma'naviy ehtiyojlarni qondirish, salomatlik, umr ko'rish davomiyligi, atrof-muhit ekologik sharoitlarni, axloqiy-psixologik iqlim, ma'naviyatni o'z ichiga oladi. O'zbekistonda aholi hayoti sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar jumlasida mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni ta'kidlab o'tish kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontsepsiyasi", 2021-yil 30-dekabrda "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmonida tatbiq etilishi belgilangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi dasturlarida atrof muhit ob'ektlarini (havo, suv, er, tuproq, er qa'ri, bioxilma-xillik, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar) inson ta'siri hamda boshqa salbiy ta'sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta'minlash hamda sanoat ishlab chiqarishi, urbanizatsiya ko'lamini keskin kengayishi va aholi punktlariga tushayotgan ekologik yukni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish rejalari ishlab chiqilgan. Ushbu loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8

foizdan 30 foizga oshirish reja qilingan. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko‘chatlarini ekish, shu orqali shaharlardagi yashil maydonlarni hozirgi 8 foizdan 30 foizga oshirish rejalashtirilgan. Insonda atrof-muhitni asrash va Yashil makon loyixasiga ko‘maklashuvchi g‘oyalar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Bunday g‘oyalar ekologik tarbiya hamda ekogumanistik g‘oyalarning natijasidir. Yashil makon loyixasini amalga oshiruvchi asosiy qatlam yoshlar ekanligini hisobga olsak, ekologik tarbiya va tabiatni asrovchi goyalarning insonlarda harakatlantiruvchi idealarni beruvchi yuksak ma‘naviy kuch ekanligi namayon bo‘ladi. Biz nazarda tutgan tarbiyaviy fikirlar jamiyat a‘zolari ongiga qanchalik tushunarli qilib yetkazib berilsa, ta‘siri shunchalik kuchli bo‘ladi. Kuchli yetkazib berishda esa maxsus metod va metodikalar ham jarayon ishtirokchisiga aylanadi. Metodologiya doirasida nechta usullarni qo‘llasak bo‘ladi, jumladan, so‘rovnomalar, suhbatlar, kuzatuvlar va hujjat tahlili. Ishtirokchilarni tanlashda ekologik va ta‘limiy kontekstdagi mavzuga oid tadqiqotda faol ishtirok etgan yoki muhim ma‘lumotlarga ega bo‘lgan shaxslar afzal ko‘rildi. So‘rovnomalar va suhbatlar aniq va batafsil ma‘lumot olishga qaratilgan bo‘lib, ishtirokchilarning roziligi asosida o‘tkazildi. Kuzatuvlar loyiha amaliy aspektlarini yaxshiroq tushunish uchun tabiiy muhit va ta‘lim jarayonlarida amalga oshirildi. Shuningdek, mavjud hujjatlarning tahlili orqali mavzu bo‘yicha ilgari olingan natijalar bilan solishtirish imkoniyati yaratildi. Ma‘lumotlarni yig‘ishda qattiq etik tamoyillar saqlanib, ishtirokchilarning roziligi, maxfiylik va anonimlik kafolatlandi. Bu yondashuvlar tahlilning ishonchliligi va haqqoniyligini ta‘minlashga xizmat qildi, ayniqsa ekologik tarbiya va ekogumanistik g‘oyalar kontekstida tadqiqot natijalarining tatbiq etilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ekologik tarbiya va ekogumanistik g‘oyalar doirasidagi natijalar, ushbu sohadagi mavjud nazariyalar va amaliyotlarga yangi yondoshuvlarni taklif qiladi. Tadqiqot natijalari ekologik tarbiya jarayonida inson va tabiat o‘rtasidagi chuqurroq uyg‘unlikni ta‘kidlab, inson ruhiyatini va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish Yashil makon loyixasini amalga oshirishdagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, topshiriqlarsiz faoliyat yurituvchi ekologik ongni shakllantirishda ekogumanistik qarashlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Zamonaviy ta‘lim va jamoat loyihalarida ekologik tarbiyani yo‘lga qo‘yish, ekogumanistik g‘oyalarni targ‘ibot qilish va ekologik madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Nimagaki ekologik tarbiya va ekogumanistik g‘oyalar “Yashil makon” loyihasining asosini tashkil etadi, bu esa atrof-muhitga nisbatan chuqurroq tushuncha va mas‘uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu g‘oyalar loyiha doirasida keng joriy etilib, tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan faoliyatlarda ekologik ongni oshirishga yordam bersa, insonlarning yashash muhitiga hurmati ortadi, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish targ‘ib qilinadi va jamiyatda ekologik gumanizm tamoyillari asosida yashash madaniyati rivojlanadi. Bu esa “Yashil makon” loyihasining atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror taraqqiyot yo‘lidagi ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Olimov, B. Ekologik tarbiya asoslari va muammolari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi; 2018 y.
2. Ergashev, S. Ekogumanistik g‘oyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti; 2020 y.
3. Nurmukhammadova, F. Yashil makon konsepsiyasi va uning mamlakatimizda rivojlanishi. ‘Ijtimoiy fanlar’jurnali; 2020 y.

4. E.Xusanov. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida ekogumanistik dunyoqarashni shakllantirish; Ta'lim innavotsiyalar nashriyoti 2025 y.
5. E.Xusanov. Ekogumanizm – “inson-jamiyat-tabiati” manfaatlarini uyg'unligidir. HUQUQ ijtimoiy-siyosiy gazetasi; 2026 y.
6. Kdirbayev.Q.M. Huquqiy davlatning barpo etilishi inson huquqlarini himoya qilishning asosiy sharti <https://doi.org/10.5281/zenodo.7780971> // “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar” nomli №5 sonli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasi.Toshkent: 2023-yil, aprel. 5-7-betlar.